

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI

**Shodiyev F**

*Uzbekistan-Finland PI Head of the Department of Theory of Primary Education,  
associate professor*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni tayyorlashda didaktik o'yinlardan samarali foydalanish borasida fikr-mulohazalar izohlangan.*

**Kalit so'zlar:** *ta'lim, tarbiya, didaktik o'yinlar, rivojlantiruvchi maqsad, ijodkorlik, yosh avlod, bo'lajak o'qituvchi, samaradorlik, grammatik tushuncha.*

Hayot – maktab, komillik darsxonasidir. Dars esa didaktik muloqotning ichki mazmuni, hayotning nurli hikmatidir. Shu ma'noda dars samaradorligi o'qituvchining unga ijodiy tayyorgarlik ko'rishiga bog'liqdir. O'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rar ekan, avvalo, darsning maqsadini bir mezonga qo'yib olishi shartdir. Darsning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari ochiq-oydin, ularni o'zaro uyg'un holda qanday qilib amalga oshirish yo'llarni aniqlanmasa, mazmunli natijaga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun bo'lajak o'qituvchilar shuni yaxshi yodda tutishlari shartki, har bir yosh o'qituvchidan darsning metodini to'g'ri tanlash puxta nazariy bilim va pedagogik mahorat talab etadi. Shuningdek, yangi bilim berish darslarida ko'proq muammoli o'qitish metodiga asoslanilsa, egallangan bilimlarni ko'nikma va malakaga aylantirish maqsadlarida qisman qayta xotirlash xarakteridagi topshiriqlardan ham foydalaniladi. O'z uslubiga ega ijodkor o'qituvchi darsni darslik asosida qurmaydi, balki uni yaratadi. Chunki darsga tayyorgarlik jarayonida o'z sohasini sevgan o'qituvchi o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq ilmiy va metodik adabiyotlar bilan ham puxta tanishib chiqishi lozim. Buyuk ma'rifatparvar shioir So'fi Olloyor bitganidek: "Ishingni puxta qilg'il, qolmag'ay xom"(7-90). Darhaqiqat, boshlang'ich ta'limda asosiy darslar pedagogik o'yinlar, ya'ni didaktik o'yinlar orqali olib boriladi. Zero, yosh avlod hayotining asosiy turlaridan biri o'yindir. Bola uchun o'yin – voqielikdir. O'yin o'sib borayotgan bola organizmining zarariy ehtiyojidir va u orqali bolalarda tashkilotchilik ko'nikmalari tarbiyalanadi. Ammo o'yin har qanday sharoitda ham o'yindir. Shunday o'yinlar ham borki, ular bolalarda mustaqillikni, odillikni, bir-biriga yordam berish hissini tarbiyalashda juda katta ahamiyatga egadir.

Didaktik o'yin – ta'lim beruvchi usul bo'lib, bu muayyan ta'limiy maqsadlarga erishishga, ya'ni o'tilgan o'quv materialini o'zlashtirish, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Har bir didaktik o'yinni o'tkazishda muayyan bir vazifa maqsad qilib olinadi(2-20).

Eng yaxshi didaktik o'yinlar mustaqil faoliyat yo'li sifatida tuzilgan bo'lib, u bolani bilim olish va mahorat egallashga undaydi. Shuning uchun bola hamisha, hatto muhim

ish bilan mashg'ul bo'lgan paytda ham o'yib bilan shug'ullanishi kerak. Agar o'yin bolalar hayoti va faoliyatini uyushtirish, uni shakllantirishga uyg'unlashtirib yuborilsa, u juda muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Didaktik o'yinlar bolalarning aqliy qobiliyatlarini, sezish organlarini, tafakkurini o'stiradi, bolalarni e'tiborli va mustaqil bo'lishga o'rgatadi va darslarni o'zlashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Faqat didaktik o'yin o'z mohiyatiga ko'ra o'yin tarzida o'tishi va dars mashg'ulotiga o'xshab qolmasligi kerak. Shundagina didaktik o'yinlar qiziqarli o'tadi va u bolalarda xursandchilik, quvnoqlik hissini tarbiyalashga yordam beradi(3-18). O'qituvchi bolalarni o'yin uchun zarur narsalar bilan qoidaga muvofiq holda tanishtiradi. O'qituvchi bolalarga predmetlar va o'yinlarni ko'rsatib, ularni roli va ular bilan qanday muomalada bo'lish kerakligini tushuntiradi. Ammo shunisi ham borki, o'yin boshlashdan oldin berilgan bunday qisqa mulohaza hamisha ham barcha bolalar uchun ham tushunarli bo'lavermaydi. Shuning uchun ham bolalarni o'yinning mazmuni va o'yin uchun zarur bo'ladigan manbalar bilan ancha ilgariroq tanishtirish maqsadga muvofiq.

O'qituvchi o'yin o'tkazishga kirishishdan oldin bolalardagi mavjud bilimlarga asoslanib qolmasdan, balki olingan bilimlarini mustahkamlashga, hamda yangi bilimlar bilan qurollantirishga yordam beradigan o'yinlar tanlashga e'tibor berishi zarur. Bunda o'qituvchining, tarbiyachining ijodkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Didaktik o'yinlarni tanlash, uni o'tkazish va tashkil qilish usullarining qanchalik to'g'riligi uning ta'sir kuchidagi muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizliklarni hal qiluvchi omil. Chunki didaktik o'yin o'tkazishda hatto noto'g'ri usul uni quruq mashqqa aylantirib qo'yadi.

Didaktik o'yinni muvaffaqiyatli tashkil qilishning eng muhim shartlaridan biri bolalarning bajariladigan o'yinga faol qantashishi va qiziqarli hisoblanadi. Buning uchun o'qituvchi barcha tashkiliy choralarni ana shunga bo'ysundirishi lozim. Bolalarning o'yinga qiziqishi va boshqa didaktik vazifalarni hal qilishda oqituvchining birinchi yordamchisi ekanligini unutmaslik kerak(1-10).

Didaktik o'yinlar bir-biridan farq qiladi, ular ko'pincha musobaqa tarzida o'tkaziladi.

Har bir o'yinning tarbiyaviy tomoni muhim ahamiyatga ega. Chunki didaktik o'yinlar idrok qilish, sabr, matonatli bo'lishga o'rgatadi, biror masalani o'z ornida tez va to'g'ri hal qilish ko'nikmalarini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham agar bolalar turli boshlang'ich bilimlarni yoshlikdan boshlab, turli usulda, ayniqsa, o'yinlar orqali tushuntirib borilsa, u holda manbalar shuncha oson, tez o'zlashtiriladi. Esda uzoq saqlanib qoladi. Bolalar ko'pincha grammatik qonun, qoidalarni yuzaki yod olishga harakat qiladilar. Turli grammatik o'yinlardan dars jarayonida foydalanish esa, o'qituvchilarni bunday vaziyatdan saqlaydi.

Bo'lajak o'qituvchilar shuni yaxshi bilishlari kerakki, so'zning fonetik tarkibi, bo'g'inga bo'lishlar va sodda gaplarga oid imlo qoidalari bilan tanishtirish asosida o'quvchilarga adabiy til va malakalar hosil qilinadi, ular tilning asosiy elementlari

hisoblanuvchi tovush va gapga ongli munosabatda bo'lish hislari tarbiyalanadi. 1-sinf o'quvchilari og'zaki va yozma nutq vositasida bir gapni ikkinchisidan ajratishni o'rganib oladilar. Predmetning kim? yoki nima? so'roqlariga javob bo'lishini ajratadilar, gapning oxiriga nuqta qo'yilishini bilib oladilar.

Quyida ana shu maqsadda biz bevosita o'quvchilarga grammatik tushunchalrni o'rgatishda foydalanish mumkin bo'lgan va bu o'yinlar o'zimiz tomon undan dars jarayonida qo'llanilgan bir nechta o'yinlarning tuzilishini keltiramiz.

“So'zlardan gap tuzish” o'yini.

O'yinning maqsadi: o'quvchilarning gap tuzish qobiliyatini mustahkamlash.

Qo'llanmalar: daftar, ruchka, so'zlar yozilgan kartochkalar beriladi.

O'yinning borishi: Kartoshcka yozilgan so'zlarni yozib chiqib, ular asosida gap tuzish kerak. Shu maqsadda beshta o'quvchi doskaga chiqariladi. Ular quyidagi kartochkalarni oladilar: onam, ketdi, zavodga. Bolalar, keldilar, maktabga. Mana, sinf, bizning, chalindi, qo'ng'iroq kabilar. O'quvchilar gap tuzishlari kerak. Qaysi o'quvchi berilgan so'zlardan tez va to'g'ri gap tuzsa gapdagi so'zlar sonini doskaga chiziq orqali ifodalasa, shu o'quvchi o'yinda g'olib deb topiladi.

Doskaga chiqqan besh o'quvchi ichidan, birinchi, ikkinchi, uchinchi o'rin egalari aniqlanadi. O'yin 5-6 daqiqa davom etadi. O'yindan darsni mustahkamlash maqsadida o'tganlarini takrorlash vaqtida foydalaniladi.

“Kim tez topadi?” o'yini.

O'yinning maqsadi: matndagi so'zlarning bo'g'inini aniqlash.

Qo'llanmalar: Ko'chma doskaga yozilgan matn namunalari.

O'yinning borishi: o'qituvchi biror mavzuga oid kichikroq matnni doskaga yozadi. O'quvchilar matnni o'qib, unda nechta gap borligini yoki so'zlar sonini aniqlaydilar. O'qituvchi so'raganda qaysi o'quvchi har ikkala topshiriqqa to'g'ri javob aytsa, o'sha o'yinda g'olib chiqqan hisoblanadi. Bu o'yinning og'zaki va yozma shaklda o'tkazish mumkin. Bu o'yin uchun 8-10 daqiqa vaqt yetadi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarning fanlarga oid kompetensiyalarini oshirishda dars jarayonida mavzularga mos qiziqarli didaktik o'yinlardan samarali foydalanish fikrlashni charxlaydi, hamkorlikni mustahkamlaydi, topqirlikni oshiradi, chaqqonlikni kuchaytiradi, eng muhimi, bunda yaxshi natija yuzaga chiqadi. Shu ma'noda qadimgi o'yin so'zining ham ilk tushunchasi aql tarbiyasidir(8-72). Demakki, bo'lajak o'qituvchilar shuni yaxshi o'zlashtirib olishlari shartki, didaktik o'yinlarning mazmuni dars samaradorligining tayanch nuqtalaridan biridir. Alloma J. Rumi aytdanidek: “Amal amal orqali, ilm ilm bilan, ma'no ma'no vositasida, shakl esa shakl vositasida anglashiladi”(9-213). Boshlang'ich ta'limda asosiy darslar didaktik o'yinlar ijrosida chuqur mazmun kasb etadi va yosh o'quvchining qaynoq qalbiga, ong-u shuuriga yorqinroq yetadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Roziqov O., Mahmudov M., Adizov B., Hamroyev A. Ona tili didaktikasi. –T.: Yangi asr avlodi, 2005-yil.
2. Umumta’lim fanlari metodikasi. Metodik jurnal. 10-son. –T.:2017-yil.
3. Maxmatmurodov Sh., Ziyodullayev X., Muxtorov B. “Didaktik o’yinlar vositasi orqali o’quvchilar bilimini mustahkamlash”. –Samarqand,1993-yil.
4. Sirojiddinov F. “Grammatik topishmoqlar”. –T. “O’qituvchi” 1995-yil.
5. Usmonova E. “O’quvchilarda mustaqil tafakkurni qanday shakllantirish mumkin?”. –Toshkent, 2000-yil.
6. G’afforova T. Boshlang’ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. O’qituvchi kitobi. –T.: Tafakkur,2011-yil.
7. Olloyor S. Sabot ul-ojizin. –Toshkent, Mehnat, 1991-yil.
8. Rumi J. Hikmatlar. –T.: Sharq, 2008-yil.
9. Shodiyev, F. (2023). ALISHER NAVOIY TIMSOLINI ERKIN VOHIDOV IJODIDAGI TALQINI TADQIQI. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(6), 522-524.
10. Teshaeovich, S. F. (2022). The Role of Children's Literature in the Formation of Professional Competence. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 3(12), 235-240.
11. Norkobilovna, J. S., Sadikovich, K. N., Teshaeovich, S. F., Gulmurodovna, S. L., & AkramIkromovich, S. (2021). Cultural and Historical Prerequisites for the Development of the Innovative Potential of the Subject of Creativity. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 2982-2986.
12. Fakhriddin, S., Abdimurat, N., Gulbakhor, R., & Oybek, G. (2023). Interpretation of History and Historical Truth in the Samples of Alisher Navoi's Hasbi Hazal. Journal of Advanced Zoology, 44.
13. Shodiyev, F., & Bahramova, M. (2023, June). Technology For Condustring Interactive Lessons. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 16-18).
14. Teshaeovich, S. F. Interactive Technology in Primary Education. International Journal on Integrated Education, 3(10), 76-77.
15. Shodiyev, F., Saidullayeva, S., Abdullayeva, Z., & Tirkasheva, M. (2023). Children's Literature in the Formation of Professional Competence Position. Central Asian Journal of Social Sciences and History, 4(6), 73-78.
16. Shodiyev, F., Kiyamova, S., Karshyeva, G., & Muradullayeva, D. (2023). The Technology of Preparation of the Future Primary School Teacher in the Global Process. Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science, 4(6), 108-111.
17. Teshaeovich, S. F. (2021). Essence of children's literature in the formation of professional competence.

18. Teshaeovich, S. F. (2021). Alisher navoi's interpretation of global ideas on human perfection. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(11), 542-550.
19. Shodiyev, F. (2024). TRAINING OF FUTURE INNOVATIVE AND CREATIVE THINKING PRIMARY SCHOOL TEACHER. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 4(37), 189-195.
20. Drobchenko, N. V., & Fakhridinov, M. F. (2022). USING THE COREL DROW COMPUTER PROGRAM TO DEVELOP STUDENTS'CREATIVE ABILITIES THROUGH DRAWING. Retrieved from <https://www.digitalfashionsociety.org/index.php/conference/article/view/114>
21. Fakhridinov, M. Convenience of working with AutoCAD Software in Drawing and Drawing Geometry. *Fan va ta'lim integratsiyasi jurnali*, 165-170.
22. Fakhridinov, M. The impact of modern technology on education. *Fan va ta'lim integratsiyasi jurnali*, 165-170.
23. Faxriddin o'g'li, F. M. (2023). CHIZMACHILIK FANI ORQALI TALABALARNING IJODKORLIK QOBILIYATLARINI O'STIRISH. *INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022*, 2(23), 41-44.
24. Faxriddin o'g'li, F. M. (2023). DUNYO TA'LIM USLUBLARIDAGI SARA DURDONALAR... *Научный Фокус*, 1(7), 190-193.
25. Faxriddin o'g'li, F. M. (2023). КОМПЬУТЕР ВА УНИНГ GLOBAL TA'LIMDAGI KREATIV O'RNI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(6), 514-521.
26. Faxriddin o'g'li, F. M. (2023). O'ZBEKISTON VA FINLANDIYA MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'AT VA CHIZMACHILIK FANLARIGA QO'YILADIGAN TALABLARNING BIR-BIRIDAN FARQLANISHI. *Научный Фокус*, 1(7), 46-52.
27. Faxriddin o'g'li, F. M. (2023). XALQARO TA'LIM TIZIMIDA TEXNOLOGIYANING O'ZIGA XOSLIGI. *PROSPECTS AND MAIN TRENDS IN MODERN SCIENCE*, 1(6), 56-59.
28. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). Art and Architecture of Europe. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN*, 5(1), 16-18. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). CHIZMACHILIK FANI SIR-ASRORLARINI O'QUVCHILARNING ONGIGA YETKAZISHNING ZAMONAVIY YECHIMLARI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(19), 142-148.
29. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). COMPUTER GRAPHICS IN THE SPHERE OF DRAWING DETAILS: ENHANCING CREATIVITY AND PRECISION. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 4(37), 196-199. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). COMPUTER GRAPHICS: EXPLORING COMPUTER GRAPHICS IN AREAS DRAWING AND ARTS. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(19), 43-46.
30. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). EXPLORING THE SPECIFIC INNOVATIONS OF COMPUTER GRAPHICS IN DRAWING SCIENCE. *Научный Фокус*, 1(10), 56-58.

31. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). FIN TA'LIM TIZIMINING GLOBAL O'QITISHDA TUTGAN O'RNI. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 3(26), 152-155.
32. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). PIRLS – (PROGRESS IN INTERNATIONAL READING LITERACY STUDY) - XALQARO O'QUVCHILAR SAVODXONLIGINI BAHOLASH TIZIMI HAQIDA. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(20), 785-790.
33. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). PISA – (PROGRAMME FOR INTERNATIONAL STUDENT ASSESSMENT) –XALQARO O'QUVCHILARNI BAHOLASH DASTURI HAQIDA. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(20), 220-225.
34. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). MUHANDISLIK KOMPYUTER GRAFIKASI VA CHIZMACHILIK DARSLARIDA KESIMLAR VA ULARNI O'RGATISH METODIKASI. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(20), 67-75.
35. Shodiyev, F. (2023). TA'LIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(20), 195-199.
36. Shodiyev, F. (2023). XALQ MAQOLLARIDAN FANLARARO FOYDALANISH INTEGRATSIYASI. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(20), 195-199.